



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI XORIJIY TILLAR FAKULTETI**



**“XORIJIY FILOGIYA, ADABIYOTSHUNOSLIK
VA TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”**

Jizzax, 2024-yil, 30-mart



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI A.QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX
DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI XORIJIY TILLAR
FAKULTETI**



**“XORIJIY FILOLOGIYA, ADABIYOTSHUNOSLIK VA
TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
Jizzax, 2024-yil, 30-mart**

JIZZAX 2024

UDK: 4; 8.809. (C 52)

BBK: 80.83.+7.80.2.

X-76

**Xorijiy filologiya, adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik masalalari”
xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Jizzax-2024. – 846 bet.**

Ma’sul muharrir

Mamatov Abdug‘ofur Eshonqulovich – filologiya fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Bo‘rieva N., Jabborova A., Fayzullaeva U., Nizomova Z., Norbekova G., Uzoqova X.

Taqrizchilar:

Mamatov Abdug‘ofur Eshonqulovich – filologiya fanlari doktori, professor

Mirsanov G‘aybullay Kulmuradovich – Samarqand davlat chet tillari instituti professori,
filologiya fanlari doktori

Maqolalarni to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasini
mudiri, dosent v.b, PhD Bo‘rieva N.Q. va Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasini
o‘qituvchi Uzoqova X.B.

Ushbu to‘plamga jamlangan maqolalar qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma
tilshunoslik va tarjimashunoslik tarixi, adabiyotshunoslik, badiiy tarjimaning lingvomadaniy
aspektlari, zamonaviy nasr va she'r tarjimasi muammolari, o‘zbek adabiyoti namunalarini ingliz
tiliga tarjima qilish, shuningdek, ingliz tilidan o‘zbek tiliga badiiy tarjimini amalga oshirish,
xorijiy tillarni o‘rganish metodikasi va ta’lim tarbiya nazariyasi, ta’lim jarayoniga pedagogik
hamda innovasion texnologiyalarni joriy etish bilan bog‘liq dolzarb muammolar hamda bu
borada erishilgan yutuqlar doirasida mutaxassislarning tajriba va fikr almashuvini ta’minlashga
xizmat qildi.

Anjuman materiallaridan mazkur mavzular atrofida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borayotgan
izlanuvchilar: olimlar, tayanch doktorantlar, magistrlar, talabalar hamda keng jamoatchilik
vakillari foydalanishlari mumkin

JADID- MUTAFFAKIRLARINING PEDAGOGIK QARASHLARI

Kadirova X.A. CHDPU

Umumiy pedagogika kafedrası v.b.dotsenti.

Annatasiya

Ushbu maqolada jadidchilik harakati namoyandalarining millat erki, kelajagi, Turkiston mustaqilligi uchun, yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish; turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish olib brogan faoliyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: adabiyot, jadid, ziyo, ma'rifat, madarsa, maktab. ta'lim, tarbiya, gazeta, erk, taraqqiyot, [panturkizm](#).

XX asr boshlariga kelib Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona vodiysi shaharlarida o'nlab jadid usulidagi maktablar ochildi. Jadidlar maktablarda yoshlarni bilimli va ma'rifatli qilib tarbiyalab, ular orqali Turkistonda mustaqil davlat barpo etish uchun milliy davlatchilik g'oyalarini ilgari surgan. XX asr boshiga kelib Turkistonda jadid ziyolilarining butun bir avlodi, o'lka ma'naviy-ma'rifiy soha taraqqiyotiga, milliy madaniyatning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan namoyandalari vujudga keldi. Bular Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Said ahmad Siddiqiy Ajziy, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Buxoroda Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Fayzulla Xo'jayev, Farg'ona vodiysida Hamza Hakimzoda Niyoziy, Obidjon Mahmudov, Abdulhamid Cho'lpon, Is'hoqxon Ibrat, Xivada Boboovun Salimov, Polvonniyoz hoji Yusupov va boshqalar edi. Jadidchilik avval madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, [turkiy tillarni](#) rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Keyinchalik jadidchilar [panturkizm](#) g'oyalarini targ'ib qilishgan. Jadidchilik harakati namoyandalari ko'pincha o'zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O'sha davrning ilg'or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. urkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo'shin tuzish. Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va taraqqiyparvar kishilarning ayrim guruhleri tomonidan ochilgan madaniy-ma'rifiy yo'nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi. Binobarin, o'sha davrdagi iqtisodiy hayotda, maorif, matbuot va turmush tarzida qaror topayotgan islohotchilik kayfiyati adabiyot va san'atni ham chetlab o'tmadi, an'anaviy yo'sindagi adabiyot o'rniga yangi, zamonaviy adabiyot, yangi adabiy tur va janrlar, hatto yangi adabiy til shakllana boshladi, publitsistika, adabiy tanqid paydo bo'ldi, barmoq vaznidagi ijtimoiy, ma'rifiy she'riyat, roman, hikoya, dramaturgiya maydonga keldi. Jadidchilik adabiyotining Behbudiy, Siddiqiy-Ajziy, Abdulla Qodiriy, Hoji Mu'in, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda, Sidqiy Xondayliqiy, Fitrat, Sadridin Ayniy, Tavallo, Nozimaxonim, Mirmulla va Mirmuhsin Shermuhamedovlar, So'fizoda, Ibrohim Davron, Abdulla Badriy, Nusratulla Quadratulla-Milliy,

Xurshid, Cho‘lpon kabi o‘nlab namoyandalari yetishib chiqdi. Hatto an‘anaviy adabiy shakllarda ijod etgan Zavqiy, Nodim, Ibrat, Saidahmad Vasliy, Karimbek Kamiy, Xislat, Miskin, Avaz O‘tar, Bayoniylar ijodida ham davr voqeligi, zamonaviy g‘oyalar aruz vaznida o‘z ifodasini topdi. Bular ham, taraqqiyparvar yoshlar qatori, ma‘rifatparvarlik qarashlarini she‘rga solib yoki maqola shaklida matbuot sahifalarida faol qatnashdilar. Shu o‘rinda alohida ta‘kidlash zarurki, jadid adabiyoti ushbu harakat g‘oyalarini aks ettiruvchi badiiy hodisa bo‘libgina qolmadi. Balki shu harakat zamirida tug‘ildi, uning maqsad va vazifalari taqozosiga ko‘ra maydonga keldi, o‘sha davr ma‘naviy hayotiga ta‘sir ko‘rsatdi. Jadid maktablari – xalqqa hamma narsadan burun ma‘rifat tarqatish, zamonaviy ilm-fanni singdirish zarurligi haqidagi fikr jadidlarning ma‘rifatchilik faoliyatidagi eng asosiy maqsad edi. Jadidchilikning poydevori, tamal toshi – usuli jadid maktabi edi. Zero, “yangi” ma‘noni beruvchi “jadid” istilohi kirib kelishining o‘zi aynan yangi usuldagi maktablar bilan bog‘liq. 1895–1910-yillar orasida Turkistonning Toshkent, Samarqand, Qo‘qon kabi barcha yirik shaharlarida, qishloqlarida Buxoro amirligi va Xiva xonliklarida o‘nlab “usuli saviya” maktablari ochildi. 1903-yillardan jadidchilik matbuoti uchun maxsus darsliklar tuzila boshlandi, lekin bu ishlar g‘oyat qiyin kechdi. Biroq mustabid hukumat va mahalliy mutaassiblarning qarshiligiga qaramay, jadidlarning sa‘y-harakatlari bilan “usuli jadid” maktablarining tarmog‘i kengayib bordi. Chinakam ma‘rifat o‘chog‘iga aylangan, madaniy tanazzuldan saqlanish va jamiyat ma‘naviyatini mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etgan yangi usul maktablarining soni 1917-yil boshlariga kelib 92 tani tashkil etdi. Jadidlar maslagining amalga oshishida maktablardan keyingi asosiy o‘rinni matbuot egallaydi. “Burung‘i o‘zbek vaqtli matbuotining tarixi” maqolasida Abdulla Avloniy 1905–1917-yillar davomida o‘zbek tilida 23 ta gazeta va 8 ta jurnal chop etilgani haqida ma‘lumot beradi. “Taraqqiy” (1906-yil, muharriri Ismoil Obidiy), “Xurshid” (1906-yil, muharriri Munavvar qori), “Shuhrat” (1907-yil, muharriri A.Avloniy), “Osiyo” (1908-yil, muharriri Ahmadjon Bektemirov), “Samarqand” (1913-yil, muharriri M.Behbudiy), “Sadoyi Turkiston” (1914-yil, muharriri Ubaydullaxo‘ja Asatullaxo‘ja o‘g‘li), “Sadoi Farg‘ona” (1914-yil, muharriri Obidjon Mahmudov) kabi qator gazetalar hamda “Oyina” (1913–1915-yillar, muharriri M.Behbudiy), “Al-isloh” (1915–1918-yillar) kabi jurnallar shular jumlasidandir. Afsuski, sal o‘tmay bu harakat bo‘g‘ib qo‘yildi. Sobiq ittifoq davrida jadidchilik g‘oyaviy-mafkuraviy jihatdan oqlanmadi, jadidchilik adabiyoti taqiqlandi. Garchi 60-yillardan keyin bu harakat namoyandalarining ayrimlari adabiy doiralarda tilga olina boshlagan bo‘lsa-da, ularga nisbatan umumiy taqiqlar o‘zgarmay qolaverdi. Faqat mustaqillikdan keyingina bu borada tub o‘zgarishlar uchun imkoniyat yaratildi. Hozirgi davrga kelib, birinchidan, jadidchilik ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida e‘tirof etildi, uning xizmatlari tan olindi. Ikkinchidan, jadid adabiyoti milliy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida baholanib, o‘nlab kitoblar, turli asarlar nashr etilmoqda, ko‘plab xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Uchinchidan, keyingi yillarda asrlar davomida orzu qilingan, jadidlar ham intilib kelgan ezgu g‘oyalar amalga oshmoqda, yurtimizda Yangi O‘zbekistonni bunyod etish imkoni paydo bo‘ldi.

Mustaqillik yillarida Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Avloniyning 2 jildli, Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Sidqiy ondayliqiy, Ibrat, Ajziy, So‘fizodaning 1 jildli, shuningdek, Fayzulla Xo‘jayev, Munavvarqori, Polvonniyoz hoji Yusupovning asarlari chop qilindi. Jadidlarning 20 ta mashhur vakili kiritilgan “Unutilmas siymolar. Jadidchilik harakatining namoyandalari” (Toshkent, 1999) albom-kitobi nashrdan chiqdi. Ularning faoliyati darslik va qo‘llanmalarga kiritildi. 1999-yil 16-18-sentabrda Toshkentda “Markaziy Osiyo XX-asr boshida:islohotlar, yangilanish, taraqqiyot va mustaqillik uchun kurash (Jadidchilik, Muxtoriyatchilik, Istiqloqlilik)” mavzuida xalqaro konferensiya o‘tkazilib, unda AQSH, Germaniya, Fransiya, Italiya,

Niderlandiya, Turkiya, Rossiya, Hindiston va boshqa mamlakatlardan kelgan nufuzli olimlar jadidchilik va istiqlolchilik harakatlari to'g'risida jahon ilm-fanida to'plangan so'nggi xulosalar yuzasidan o'zbekistonlik hamkasblari bilan o'zaro fikr almashdilar. Jadidchilik harakati jahonshumul ahamiyatga molik hodisa ekanligi e'tirof qilindi. Jadidlar maslagining amalga oshishida maktablardan keyingi asosiy o'rinni matbuot egallaydi. "Burung'i o'zbek vaqtli matbuotining tarixi" maqolasida Abdulla Avloniy 1905–1917-yillar davomida o'zbek tilida 23 ta gazeta va 8 ta jurnal chop etilgani haqida ma'lumot beradi. "Taraqqiy" (1906-yil, muharriri Ismoil Obidiy), "Xurshid" (1906-yil, muharriri Munavvar qori), "Shuhrat" (1907-yil, muharriri A.Avloniy), "Osiyo" (1908-yil, muharriri Ahmadjon Bektemirov), "Samarqand" (1913-yil, muharriri M.Behbudiy), "Sadoyi Turkiston" (1914-yil, muharriri Ubaydullaxo'ja Asatullaxo'ja o'g'li), "Sadoi Farg'ona" (1914-yil, muharriri Obidjon Mahmudov) kabi qator gazetalar hamda "Oyina" (1913–1915-yillar, muharriri M.Behbudiy), "Al-isloh" (1915–1918-yillar) kabi jurnallar shular jumlasidandir. Afsuski, sal o'tmay bu harakat bo'g'ib qo'yildi. Sobiq ittifoq davrida jadidchilik g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan oqlanmadi, jadidchilik adabiyoti taqiqlandi. Garchi 60-yillardan keyin bu harakat namoyandalarining ayrimlari adabiy doiralarda tilga olina boshlagan bo'lsa-da, ularga nisbatan umumiy taqiqlar o'zgarmay qolaverdi. Faqat mustaqillikdan keyingina bu borada tub o'zgarishlar uchun imkoniyat yaratildi. Hozirgi davrga kelib, birinchidan, jadidchilik ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida e'tirof etildi, uning xizmatlari tan olindi. Ikkinchidan, jadid adabiyoti milliy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida baholanib, o'nlab kitoblar, turli asarlar nashr etilmoqda, ko'plab xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Uchinchidan, keyingi yillarda asrlar davomida orzu qilingan, jadidlar ham intilib kelgan ezgu g'oyalar amalga oshmoqda, yurtimizda Yangi O'zbekistonni bunyod etish imkoni paydo bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1."Jadidchilik". O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
2. G'ozzi Yunus. Eski maktabalar haqida // Ishtirokiyun. –1919-yil 25-iyun. –№ 129.
3. K.Xoshimov Pedagogika tarixi. 2006 yil.

BO'LAJAK IQTISODCHILAR YOZUV MALAKASINI RIVOJLANTIRISH

Pulatova Zulfiya Abduazizovna

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi "Ijtimoiy fanlar va chet tillari" kafedrasida dotsenti v.b., pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

Ingliz tilida professional darajada yozish bo'lajak iqtisodchilar o'rganishi mumkin bo'lgan eng muhim ko'nikmalardan biridir. Yaxshi yozuv malakasi bo'lajak mutaxassis g'oyalarini aniq va samarali etkazishi uchun juda muhimdir. Shuningdek, ular o'qish davrida va kelajakdagi karyerada muvaffaqiyat qozonishda yordam beradi. Shu nuqtai nazardan, yozuv malakasini rivojlantirishning muhim sabablari ko'p. Birinchidan, ingliz tili imtihonlaridan ijobiy natijalar kutilsa, talab darajasida yozish talab etiladi. O'z fikrini yozma ravishda aniq ifoda etish qobiliyati testlar va boshqa topshiriqlarni qanchalik yaxshi bajarish orqali aks etadi. Ikkinchidan, yaxshi yozuv malakasiga ega bo'lish bo'lajak mutaxassislarga ish topishga yoki